

MAMLAKATIMIZDA SOLIQ NAZORATI TARTIBIDAGI TEKSHIRUVLAR TASHKIL ETISH XORIJ TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal institutning mustaqil izlanuvchisi*

Maxmatraemov Baxrom Omonovich

Annotatsiya mazkur maqolada, soliq xizmati organlari tomonidan soliq nazorati hamda soliq tekshiruvlarining uslubiy asoslari takomillashtirish va ularni samaradorligini baholash yo'llari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, tadqiqot doirasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, moliyaviy nazorat, soliq tekshiruvlari, kameral nazorat, soliq auditi, auditning xalqaro standartlari, normativ tahlil, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish Soliq nazorati samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, soliq nazorati va uning shakli bo'lgan soliq tekshiruvlarining konseptual xususiyatlarini ochib berish, ularning samarali zamonaviy usul va vositalarini joriy etish, soliq tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni milliy soliq tizimiga tatbiq etish kabilar bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Germaniyada soliq tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha "soliq qonunchiligiga muvofiq, soliq organi rahbari har yili va har chorakda soliq tekshiruvlari rejalarini tasdiqlaydi. Yuqori soliq organlari bunday rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etish huquqiga ega emas, lekin ular mustaqil ravishda keng tuzilmaga ega bo'lgan alohida soliq to'lovchilarni tekshirishlari mumkin. Soliq to'lovchi, agar uzrli sabab bo'lsa, tekshirishning boshlanish sanasini kechiktirishga haqli. Tekshiruv tugagandan so'ng dalolatnoma tuziladi, unda audit natijasida olingan va muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha ma'lumotlar mavjud. Agar tekshirish natijasida soliqqa oid huquqbuzarliklar

aniqlanmasa va soliq majburiyatlari miqdori o'zgarmasa, u holda tekshirish dalolatnomasi tuzilmaydi. Bunda soliq to'lovchiga soliqqa oid huquqbuzarliklar aniqlanmaganligi to'g'risida faqat xabarnoma yuboriladi"¹. Soliq to'lovchi korxonadan bildirishnomani olish vaqtini ham tartibga soladi. Ushbu muddatlar korxonaning hajmiga qarab o'zgaradi, masalan, yirik korxonaning soliq tekshiruvini to'g'risida xabarnomani tekshirish boshlanishidan to'rt hafta oldin olishi kerak; o'rta korxonaning tekshiruv boshlanishidan uch hafta oldin, kichik korxonaning esa bir hafta oldin ogohlantirishi kerak.

Germaniya tajribasida to'satdan o'tkaziladigan soliq tekshiruvlarini o'tkazish faqatgina maxsus soliq organi tomonidan ruxsat berilgan tarzda amalga oshiriladi. Germaniya Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, "2017-yilda 14576 nafar soliq inspektori joylarda tekshiruvlar o'tkazgan va bu tekshiruvlar natijasida qo'shimcha baholashlar miqdori 17,2 milliard yevroni tashkil qilgan. Umuman olganda, Germaniyada soliq to'lashdan bo'yin tovlash bilan bog'liq soliq huquqbuzarliklarini tekshirishga vakolatli 67 ta organ mavjud. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yil yakunlari bo'yicha 31 537 ta soliq tekshiruvini yakunlangan bo'lib, shundan 15 788 tasi jinoiy ish qo'zg'atilgan"². Buyuk-Britaniyada ham soliq nazoratining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu mamlakatda soliq siyosatida muhim rol o'ynaydigan ikkita asosiy davlat organi: Davlat daromadlari va bojxona boshqarmasi va Buyuk Britaniya Moliya va G'aznachilik vazirligi alohida rol o'ynaydi. "Soliq nazoratini amalga oshiruvchi asosiy organ Buyuk Britaniya soliq to'lovchilarining soliq deklaratsiyasi topshiriladigan tuman daromadlar boshqarmasi hisoblanadi. Qabul qilingan soliq deklaratsiyasi birlamchi tekshiriladi. Ularning aksariyati qo'shimcha ko'rib chiqilmasdan qayta ishlanadi. Ko'rib chiqishning dastlabki bosqichida soliq tekshiruvchilari shubhali deklaratsiyalar guruhini ajratib ko'rsatishadi, keyinchalik ular diqqat bilan o'rganiladi. Dastlabki tekshiruvdan o'tgan barcha soliq deklaratsiyasi ERA tizimi orqali tarqatiladi. Bu tizimda soliq

¹ Aliyev Sh.I., Aliyeva Z.M., Tailova A.G. Nalogovyy kontrol v Rossii i zarubejnyx stranax: formy i metody yego osushchestvleniya: Monografiya. DGI (filial) OUP VO "ATiSO". Tambov: Konsaltingovaya kompaniya Yukom, 2020. 33-34 s.

² O'sha manba. 37 bet.

deklaratsiyasiga “E”, “R”, “A” belgilari qo‘yiladi. “A” toifasidagi deklaratsiyaning berilishi ushbu deklaratsiya qabul qilinganligini, unda hech qanday kamchilik yo‘qligini bildiradi. “R” toifasining berilishi deklaratsiyani tahlil qilish kerakligini anglatadi. Ya’ni, bu holatda ayrim masalalar bo‘yicha chuqurroq soliq tekshiruvini o‘tkaziladi. Odatda bunday savollar yirik korxonalarining deklaratsiyalariga ko‘ra kuzatiladi. Va nihoyat, “E” toifasi deklaratsiya qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tishi kerak bo‘lgan hollarda tayinlanadi. Bunday holda, deklaratsiya va unga qo‘shilgan hisobotni yanada chuqurroq tekshirish amalga oshiriladi. Ba’zi hollarda deklaratsiyaga A+ toifasi berilishi mumkin, ya’ni deklaratsiyada yo‘q qilinishi kerak bo‘lgan kichik, ko‘pincha arifmetik xatolar mavjud”³ degan xulosa qilinadi va shunga muvofiq soliq nazorati shakllari tayinlanadi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida soliq tizimi o‘ziga xoslikka egaligi bo‘yicha mamlakatlari orasida alohida ajralib turadiki, soliq nazoratini o‘tkazishda ham shunday xususiyat mavjud. AQSHda soliq tizimida federal soliq organi Ichki daromad xizmati (IDX) hisoblanadiki, uning shtatlarda ham bo‘linmalari mavjud. Federatsiya subyektlari darajasida shtatlarning soliq xizmatlari mavjud. Ichki daromad xizmati Moliya vazirligining tarkibiy bo‘linmasi sifatida vakolati doirasida soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga amal qilishini hamda federal soliqlarning byudjetga kelib tushishi yuzasidan soliq nazoratini olib boradi. Bundan tashqari AQSHda Ichki daromad xizmati tarkibiy jihatdan har bir soliq byurosi 6 ta bo‘lim: ma’muriy, litsenziyalash (ma’lum turdagi faoliyat bilan shug‘ullanish uchun), ma’lumotlarni qayta ishlash, soliq yig‘ish, soliq nazorati va tergov bo‘limidan iborat bo‘lib, ular o‘z faoliyatida davlat g‘aznachiligiga soliq tushumlarini minimal xarajatlar bilan tegishli miqdorda olishini ta’minlashga qaratilgan siyosatini olib boradi. AQSHda soliq nazorati “Ichki daromad xizmati tomonidan olingan barcha ma’lumotlar kompyuterlashtirilgan buxgalteriya tizimiga kiritiladi, avtomatik ravishda qayta ishlanadi va soliq deklaratsiyasidagi ma’lumotlar bilan taqqoslanadi, Axborotni qayta ishlashda maxsus matematik modellardan foydalanish soliq deklaratsiyasini

³ Aliyev Sh.I., Aliyeva Z.M., Tailova A.G. Nalogovyy kontrol v Rossii i zarubejnyx stranax: formy i metody yego osushchestvleniya: Monografiya. DGI (filial) OUP VO "ATiSO". Tambov: Konsaltingovaya kompaniya Yukom, 2020. 39-41 s.

keyinchalik soliq inspektorlari tomonidan amalga oshiriladigan har tomonlama tekshirish uchun tanlash imkonini beradi”⁴. Soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribasini qiyosiy tahlil qilishda MHD tarkibiga va O‘zbekistonga qo‘shni hisoblagan Qozog‘iston tajribasini ham o‘rganishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Qozog‘istonda qonunchilikka muvofiq, ya’ni, Soliq kodeksining “Soliq nazorati” deb nomlangan 69-moddasida soliq nazoratini amalga oshirish tartiblari belgilab qo‘yilgan. Mazkur qonunchilikka ko‘ra, “Soliq nazorati - bu soliq organlari tomonidan Qozog‘iston Respublikasi soliq qonunchiligi normalari, Qozog‘iston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari normalarining bajarilishi ustidan amalga oshiriladigan davlat nazorati bo‘lib, ularning bajarilishini nazorat qilish soliq organiga yuklatilgan”⁵. Qozog‘iston Respublikasida Soliq nazorati soliq majburiyati, ijtimoiy to‘lovlarni hisoblash, ushlab qolish va o‘tkazish majburiyatining bajarilishini hisobga olish, nazorat-kassa mashinalaridan foydalanish tartibiga rioya etilishini nazorat qilish, aksiz to‘lanadigan tovarlar, shuningdek aviatsiya yoqilg‘isi, bioyoqilg‘i va mazut ustidan nazorat qilish, transfer bahosini belgilashda nazorat qilish, davlat mulkiga aylantirilgan (qabul qilingan) mol-mulkni hisobga olish, saqlash, baholash, undan keyin foydalanish va realizatsiya qilish tartibiga rioya etilishini nazorat qilish, vakolatli davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va "Fuqarolar uchun hukumat" davlat korporatsiyasining Qozog‘iston Respublikasi soliq qonunchiligini amalga oshirishga qaratilgan funksiyalarni amalga oshirish bo‘yicha vazifalarni bajarish bo‘yicha faoliyatini nazorat qilish, tovarlarga qo‘shimcha schyot-fakturalarni rasmiylashtirish tartibiga rioya etilishini nazorat qilish, o‘z vakolatlari doirasida tamg‘alanishi va kuzatilishi lozim bo‘lgan tovarlarning aylanishini nazorat qilish”⁶ shaklida o‘tkaziladi.

⁴ Tyutyuryukov N.N. Nalogovye sistemy zarubejnyx stran: Yevropa i SSHA: ucheb. posobiye. M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i Ko», 2002. 174 s.

⁵ O nalogax i drugix obyazatelnyx platejax v byudjet (Nalogovyy kodeks) Kodeks Respubliki Kazaxstan ot 25-dekabrya 2017 goda № 120-VI ZRK. <https://zakon.uchet.kz/rus/docs/K1700000120#z69>.

⁶ O nalogax i drugix obyazatelnyx platejax v byudjet (Nalogovyy kodeks) Kodeks Respubliki Kazaxstan ot 25-dekabrya 2017 goda № 120-VI ZRK. <https://zakon.uchet.kz/rus/docs/K1700000120#z69>.

Xulosa va takliflar:

Soliq imtiyozlarini qoʻllayotgan soliq toʻlovchilar tomonidan soliq bazasini yashirish faktlari aniqlangan taqdirda, ular tomonidan qoʻllaniladigan soliq imtiyozlari toʻxtatilib, qonunchilikda belgilangan moliyaviy jarimalar qoʻllash tartibi joriy qilish zarur. Soliq toʻlovchilarning huquqni suiisteʼmol qilish alomatlariga ega boʻlgan qalbaki (koʻzboʻyamachilik uchun tuzilgan) bitimlar tuzish orqali ayrim operatsiyalarni yoki operatsiyalar ketma-ketligini amalga oshirish faktlari aniqlangan taqdirda, soliq tekshiruvlari soliq toʻlovchini xabardor qilmasdan oʻtkazish tartibi belgilash.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Gʻафур Gʻулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.

Нормурзаев, У. (2023). Мамлакатимизда солиқ тизимида амалга оширилган ислохотлар таҳлили. *Иqtisodiy Taraqqiyot va tahlil*, 1(4), 177–183. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss4-pp177-183>.